



TEHNOLOGIYA TA`LIMINING OPTIMALLASHTIRILGAN MAZMUNINI TANLASH VA UNI O'QITISH METODIKASI

Xalikova Xumora Atitillaevna
Xursanboeva Irodahon Mahammatalievna
Saydanova Dilafruz Sadirdinovna

Andijon davlat pedagogika instituti magistrantlari,

Zaparov Abduqaxxor Abdumalikovich


professor.

Annotatsiya: *Maqolada umumiy o'rta ta'limning Texnologiya fanining Davlat ta'lim standarti, o'quv dasturlari ularga kiritilgan o'zgarishlar tahlil qilingan va ularni uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash hamda optimallashtirilganlashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *Texnologiya fani, uzviylik, uzluksizlik, optimallashtirilganlashtirilgan Davlat ta'lim standarti, o'quv dasturlari,.*

2017 yilgacha amaldagi Davlat ta'lim standartiga ko'ra o'quvchilar 5-9 sinflarda texnologiya ta'limi fanida mavjud beshta yo'nalishlaridan faqat bittasi bo'yicha tahsil olishi belgilab berilgan bo'lib, unda xalq xo'jaligi, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tayyorlov yo'nalishlari, mutaxassisliklar va kasblar tasniflagichi tuzilmasi va talablariga muvofiq tayyorlash bilan bog'liq imkoniyatlar hamda qiziqishlari cheklab qo'yilgan edi. Shu bilan birga kasb tanlashga yo'llash ishlari faqatgina 8-9 sinflarda qisman o'rganilishi o'quvchilarda quyi sinflardan kasb-hunarlar to'g'risidagi tushunchalarni tizimli shakllantirish imkonini bermasligi, ta'lim mazmunini integratsiyalash prinsipini to'laqonli amalga oshirishga to'sqinlik qilar edi. Shunga ko'ra, ishchi guruh tomonidan Davlat ta'lim standarti sharhlarida o'quvchilarning yosh va psixofiziologik xususiyatlariga mos kelmaydigan, fanlararo bog'lanishni ta'minlamaydigan ko'pgina mavzular chiqarilib, texnologiya ta'limi yo'nalishlari o'zaro integratsiyalashtirilib, 5 ta yo'nalish 3 taga keltirildi, ya'ni: 5-7 sinflarda "Yog'ochga ishlov berish texnologiyasi" va "Metalga ishlov berish texnologiyasi" yo'nalishlari umumlashtirilib, yangi "Uy-ro'zg'or buyumlarni ta'mirlash" va "Elektrotexnika ishlari" bo'limlari bilan yagona "Texnologiya va dizayn"; "Gazlamaga ishlov berish texnologiyasi" va "Pazandachilik asoslari" yo'nalishlari mazmunan umumlashtirilib, yangi "Buyumlarni ta'mirlash texnologiyasi" bo'limi bilan yagona "Servis xizmati" yo'nalishlar mazmuni ishlab chiqildi. "Qishloq xo'jalik asoslari" yo'nalishi zamonaviy talablar darajasida qayta ishlanib, uning mazmunga yangi "Uy-ro'zg'or buyumlarni ta'mirlash" va "Elektrotexnika ishlari" bo'limlari qo'shildi.

"Qishloq xo'jalik asoslari" yo'nalishi zamonaviy talablar darajasida qayta ishlanib, uning mazmunga yangi "Uy-ro'zg'or buyumlarni ta'mirlash" va





“Elektrotexnika ishlari” bo‘limlari qo‘shildi. 8-9 sinflarda “Texnologiya va dizayn” va “Servis xizmati” yo‘nalishlar mazmuniga “Xalq hunarmandchiligi texnologiyasi” bo‘limlari mahalliy sharoitlar hamda milliy xususiyatlarni e‘tiborga olgan holda o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish maqsadida yangi kiritildi. “Qishloq xo‘jalik asoslari” yo‘nalishizamonaviy talablar darajasida modernizatsiya qilinib, ishlab chiqarish asoslari va kasb tanlashga yo‘llashga oid bilimlar bilan to‘ldirildi.

Texnologiya ta‘limi fani bo‘yicha umumiy o‘rta ta‘limining o‘quv yuklamalarini optimallashtirilganlashtirish natijalari ishchi guruhlar xulosalari va tahlillari, Ilmiy metodik Kengash tavsiyalari asosida umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida “Texnologiya ta‘limi” fanidan 5 ta yo‘nalish bo‘yicha har biriga ajratilgan 68 soatdan 68 ta mavzular (yillik yuklamaning 100 %) optimallashtirilganlashtirildi.

Texnologiya ta‘lim fanida avvalgi 5ta yo‘nalishlar taqsimoti:

- 1.Yog‘ochga ishlov berish texnologiyasi 68 soat
- 2.Metallarga ishlov berish texnologiyasi 68 soat
- 3.Gazlamaga ishlov berish texnologiyasi 68 soat
- 4.Pazandachilik asoslari 68 soat
- 5.Qishloq xo‘jalik asoslari 68 soat

5 ta yo‘nalish 3 ta yo‘nalishga integratsiya qilindi:

1. Servis xizmati yo‘nalishi 68 soat
2. Texnologiya va dizayn yo‘nalishi 68 soat
3. Qishloq xo‘jaligi asoslari yo‘nalishi 68 soat.

O‘quv yuklamalarini optimallashtirilgan sinflar kesimida quyidagicha amalga oshirildi:


5-sinf“Texnologiya va dizayn” yo‘nalishiga “Metallarga ishlov berish texnologiyasi” bo‘limidan 18 soat hisobidan 18 ta mavzu, “Yog‘ochga ishlov berish texnologiyasi” bo‘limidan 42 soat hisobidan 42 ta mavzular tanlab olindi.Yangi “Elektrotexnika ishlari” (4 soat), “Uy-ro‘zg‘or buyumlarini ta‘mirlash” (4 soat) bo‘limlari kiritildi.

“Servis xizmati” yo‘nalishiga “Pazandachilik asoslar” bo‘limidan 18 soat hisobidan 18 ta mavzu, “Gazlamaga ishlov berish texnologiyasi” bo‘limidan 48 soat hisobidan 48 ta mavzular tanlab olindi. Yangi “Buyumlarni ta‘mirlash texnologiyasi” (2 soat) bo‘limi kiritildi.

“Qishloq xo‘jalik asoslari” yo‘nalishiga 68 soat hisobidan 8 soat hajmdagi 8 ta mavzu chiqarilib, shu soatlar hisobidan Yangi “Elektrotexnika ishlari” (4 soat), “Uy-ro‘zg‘or buyumlarini ta‘mirlash” (4 soat) bo‘limlari kiritildi.

6-sinf“Texnologiya va dizayn” yo‘nalishiga “Metallarga ishlov berish texnologiyasi” bo‘limidan 18 soat hisobidan 18 ta mavzu, “Yog‘ochga ishlov berish texnologiyasi” bo‘limidan 40 soat hisobidan 40 ta mavzular tanlab olindi.Yangi “Elektrotexnika ishlari” (6 soat), “Uy-ro‘zg‘or buyumlarini ta‘mirlash” (4 soat) bo‘limlari kiritildi.

“Servis xizmati yo‘nalishiga “Pazandachilik asoslari” bo‘limidan 18 soat hisobidan 18 ta mavzu, “Gazlamaga ishlov berish texnologiyasi” bo‘limidan 48 soat hisobidan 48





ta mavzular tanlab olindi. Yangi "Buyumlarni ta'mirlash texnologiyasi" (2 soat) bo'limi kiritildi.

"Qishloq xo'jalik asoslari" yo'nalishiga 68 soat hisobidan 10 soat hajmdagi 10 ta mavzu chiqarilib, shu soatlar hisobidan "Elektrotexnika ishlari" (6 soat), "Uy-ro'zg'or buyumlarini ta'mirlash" (4 soat) bo'limlari kiritildi.

7-sinf "Texnologiya va dizayn" yo'nalishiga "Metalga ishlov berish texnologiyasi" bo'limidan 18 soat hisobidan 18 ta mavzu, "Yog'ochga ishlov berish texnologiyasi" bo'limidan 38 soat hisobidan 38 ta mavzular tanlab olindi. Yangi "Elektrotexnika ishlari" (8 soat), "Uy-ro'zg'or buyumlarini ta'mirlash" (4 soat) bo'limlar kiritildi.

"Servis xizmati" yo'nalishiga "Pazandachilik asoslari" bo'limidan 18 soat hisobidan 18 ta mavzu, "Gazlamaga ishlov berish texnologiyasi" bo'limidan 46 soat hisobidan 46 ta mavzular tanlab olindi. Yangi "Buyumlarni ta'mirlash texnologiyasi" (4 soat) bo'limi kiritildi.

"Qishloq xo'jalik asoslari" yo'nalishiga: 68 soat hisobidan 12 soat hajmdagi 12 ta mavzu chiqarilib, shu soatlar hisobidan "Elektrotexnika ishlari" (8 soat), "Uy-ro'zg'or buyumlarini ta'mirlash" (4 soat) bo'limlari kiritildi.

8-sinf "Texnologiya va dizayn" yo'nalishiga "Ishlab chiqarish asoslari" bo'limidan 16 soat hisobidan 16 ta mavzu, "Kasb tanlashga yo'llash" bo'limidan 4 soat hisobidan 4 ta mavzular tanlab olindi. Yangi "Xalq hunarmandchiligi texnologiyasi" bo'limi (14 soat) kiritildi.

"Servis xizmati" yo'nalishiga "Ishlab chiqarish asoslari" bo'limidan 16 soat hisobidan 16 ta mavzu, "Kasb tanlashga yo'llash" bo'limidan 4 soat hisobidan 4 ta mavzular tanlab olindi. Yangi "Xalq hunarmandchiligi texnologiyasi" bo'limi (14 soat) kiritildi.


"Qishloq xo'jalik asoslari" yo'nalishiga "Ishlab chiqarish asoslari" bo'limidan 30 soat hisobidan 30 ta mavzu, "Kasb tanlashga yo'llash" bo'limidan 4 soat hisobidan 4 ta mavzular tanlab olindi.

9-sinf "Texnologiya va dizayn" yo'nalishiga "Ishlab chiqarish asoslari" bo'limidan 16 soat hisobidan 16 ta mavzu, "Kasb tanlashga yo'llash" bo'limidan 8 soat hisobidan 8 ta mavzular tanlab olindi. Yangi "Xalq hunarmandchiligi texnologiyasi" bo'limi (10 soat) kiritildi.

"Servis xizmati" yo'nalishiga "Ishlab chiqarish asoslari" bo'limidan 16 soat hisobidan 16 ta mavzu, "Kasb tanlashga yo'llash" bo'limidan 8 soat hisobidan 8 ta mavzular tanlab olindi. Yangi "Xalq hunarmandchiligi texnologiyasi" bo'limi (10 soat) kiritildi.

"Qishloq xo'jalik asoslari" yo'nalishiga "Ishlab chiqarish asoslari" bo'limidan 26 soat hisobidan 26 ta mavzu, "Kasb tanlashga yo'llash" bo'limidan 8 soat hisobidan 8 ta mavzular tanlab olindi.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining 2012 yil 16 maydagi 160-sonli buyrug'i asosida O'zbekiston Respublikasi umumiy o'rta ta'lim maktablarining 2012 - 2013 o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv rejalariga berilgan tushuntirish xatining





5-bandida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 - yil 22 avgustdagi "Din sohasidagi ma'naviy-ma'rifiy, ta'lim ishlarini va faoliyatni yanada takomillashtirishda ijtimoiy ko'mak va imtiyozlar berish to'g'risida"gi 364-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida "Dinlar tarixi" kursidan dastlabki umumiy tushunchalar:

I-IV-sinflarda sinflar kesimida 17 soatdan, jami 68 soat "Odobnoma", "Atrofimizdagi olam", "O'qish", "Texnologiya", "Tabiatshunoslik" fanlari va tarbiyaviy soatlar tarkibida;

6-bandida "Iqtisodiy bilim asoslari" I-IV sinflarda "Iqtisod va soliq alifbosi" kursining o'quv materiallari "Ona tili", "O'qish", "Matematika", "Atrofimizdagi olam", "Texnologiya" fanlari tarkibida, sinflar kesimida 10 soatdan jami 40 soat;

V-VII sinflarda "Iqtisod va soliq saboqlari" o'quv kurslari "Matematika", "Texnologiya", "Fizika", "Konstitutsiya olamiga sayohat", "Geografiya", "Tarix", "Vatan tuyg'usi" fanlari tarkibida sinflar kesimida 17 soatdan jami 51 soat;

10-bandida "Xayot xavfsizligi asoslari" mashg'uloglari I-IV sinflarda "Jismoniy tarbiya", "Odobnoma", "Atrofimizdagi olam" fanlari tarkibida 17 soatdan, V-IX sinflarda "Geografiya", "Biologiya", "Kime", "Fizika", "Texnologiya ta'limi", "Vatan tuyg'usi" va "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" fanlari dasturlari tarkibida sinflar kesimida 17 soatdan o'tiladi.

12-bandida umumiy o'rta ta'lim maktablarining V-VII-sinflarda "Sog'lom avlod asoslari" o'quv kursi "Biologiya", "Jismoniy tarbiya", "Texnologiya ta'limi" fanlariga integratsiya qilingan holda o'qitiladi.

13-bandida malakali o'qituvchilarga va zarur sharoitlarga yega bo'lgan umumiy o'rta ta'lim maktablarida (shahar maktablarida sinfdagi o'quvchilarning soni 25 va undan ortiq, qishloq maktablarida yesa 20 va undan ortiq bo'lgan taqdirda) quyidagi fanlarni o'qitishda sinf o'quvchilari ikki guruhga bo'linadi:

Amaliyotdagi davlat ta'lim standartlariga ko'ra umumiy o'rta ta'lim maktablarining V-IX-sinflarida o'quvchilar soni shahar maktablarida 25 va undan ortiq, qishloq maktablarida 20 va undan ortiq bo'lsa, texnologiya ta'limi darslari shu sinfdagi o'quvchilarni ikki guruh (o'g'il va qiz bolalar)ga ajratgan holda alohida dasturlar asosida olib boriladi.

17-bandida o'quv yili yakunida V-VI-VII-VIII-sinf o'quvchilarining texnologiya ko'nikmalarini shakllantirish va kasbga yo'naltirish maqsadida maxsus ishlab chiqilgan, ota-onalar va mahalla qo'mitalari raislari bilan kelishilgan, maktab direktori tomonidan tasdiqlangan jadval asosida amaliy texnologiya mashg'ulotlari:

-V-VI sinflarda 6 kun 4 soatdan;

-VII sinfda 10 kun 4 soatdan;

-VIII sinfda 16 kun 4 soatdan bevosita maktabda, idora va korxonalarda, Xalq ta'limi vazirligining 2003 yil 3 noyabrdagi 159-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Umumiy o'rta ta'lim maktablarining V-VIII va IX-sinflarida amaliy texnologiya mashg'ulotlarini o'tkazish tartibi to'g'risida yo'riqnoma"ga qat'iy rioya qilgan holda o'tkaziladi.





Shu maqsadda, 2012–2013-o'quv yili uchun tasdiqlangan tayanch o'quv rejaga asosan texnologiya ta'limi fani tarkibiga "Din tarixi" kursidan (1-4-sinf) 4 ta mavzu, "Iqtisod va soliq alifbosi" (1-4-sinf) kursidan ja'mi 8 ta mavzu, "Iqtisod va soliq saboqlari" (5-, 6-, 7-, 9-sinf) kursidan 14 ta mavzu, "Sog'lom avlod asoslari" o'quv kursidan 14 ta mavzu hamda "Hayot xavfsizligi" (5-9-sinf) kursidan 11 ta mavzular singdirildi.

Jumladan, 1-sinf "Qishloq xo'jalik texnologiyai" mavzusi tarkibiga "Din tarixi" o'quv kursi mavzularidan "Ilm va hunarning hosiyati haqida donolar o'g'itlari" mavzusi;

2-sinf "Xalq hunarmand ustalarining ish namunalariga qarab plastilin yoki loydan o'yinchoqlar yasash" mavzusi tarkibiga "Ustoz va shogird" mavzusi;

3-sinf "8-mart bayrami tabriknomasini yasash" mavzusi tarkibiga "Savob ishni har kim har kuni qilishi kerak" mavzusi;

4-sinf "Mustaqillik bayramiga tabriknoma tayyorlash" mavzusi tarkibiga "Farovonlik-hayotko'rki" mavzulari;

"Iqtisod va soliq alifbosi" (1-4-sinf) o'quv kursidan:

1-sinf "Pazandachilik kasbi haqida tushuncha" mavzusi tarkibiga; "Odamlar nima uchun texnologiya qiladilar?" mavzusi "Kasblar haqida ma'lumot. Quruvchilik kasbi" mavzusi tarkibiga "Kasb va hunarlar", "Kimlar qayerda ishlaydi?" mavzulari, "Bahorgi dala ishlari" mavzusi tarkibiga "Texnologiyaning mahsuli-mahsulot va uning turlari" mavzusi;

mavzusi tarkibiga "Suv uchun haq to'lash. Elektr uchun haq to'lash" mavzulari, "Ijodiy ish" mavzusi tarkibiga "O'z kuchi bilan ko'rgazmali o'quv qurollari yasash" kabi mavzulari kiritilgan.

"Iqtisod va soliq saboqlari" o'quv kursidan:

5-sinf "Ehtiyojlar va ularning turlari" mavzusi "Metallarning turmushda va xalq xo'jaligidagi ahamiyati, tuzilishi, turlari, sohalari. Metallarning tashqi ko'rinishi va o'ziga xos belgilari" mavzusi tarkibiga, "Ishlab chiqarish", "Ehtiyojlarning cheksizligi" mavzulari "Duradgorlik buyumlari detallarini tayyorlash" mavzusi tarkibiga, "Tabiiy, kapital, texnologiya resurslari", "Tabiatdagi jami resurslar chegaralanganligi" mavzulari "Yog'ochning turmushda va xalq xo'jaligidagi ahamiyati, tuzilishi, turlari, sohalari. Yog'ochning tashqi ko'rinishi va o'ziga xos belgilari" mavzulari tarkibiga, "Bozorning turlari: iste'mol tovarlari bozori; ishlab chiqarish vositalari bozori" mavzulari "Xalq hunarmandchiligi haqida umumiy ma'lumot" mavzusi tarkibiga, "Natural xo'jalik", "Ayirboshlash", "Barter", "Tovar", "Tovar xo'jaligi" mavzulari "Yog'ochga ishlov berishda qo'llaniladigan xalq hunarmandchiligi yelementlari" mavzulari tarkibiga, "Texnologiya", "Insonning texnologiyaga bo'lgan ehtiyoji" mavzulari "O'zbek milliy oshxonasining o'ziga xos xususiyatlari va rivojlanishi" mavzusi tarkibiga singdirildi.

6-sinf "Qandolatchilikda ishlatiladigan texnologik jihozlardan foydalanish qoidalari" mavzusi tarkibiga "Texnologiya unumdorligi", "Zamonaviy texnika va





texnologiyalar” mavzulari, “Yog’ochga ishlov berish texnologiyasi asosida uy-ro’zg’or buyumlarini tayyor-lash” mavzusi tarkibiga “Ishlab chiqarish omillari: tabiiy omil, texnologiya omili, kapital omili va tadbirkorlik” mavzulari, “Elektryenegriyasini tejimli ishlatish usullari. Elektrotexnik hamda elektron uskunalarni ishlab chiqarish, ishlatish va ularga xizmat ko’rsatishga oid kasb-hunarlar to’g’risida ma’lumot” mavzulari tarkibiga “Texnologiya taqsimoti va kasblar”, “Soha va tarmoqlar”, “Ixtisoslashuv”;

5-sinf “Hayot xavfsizligi asoslari” o’quv kursidan “Uy-ro’zg’or ishlari va xavfsizlik, san-chiladigan o’tkir tig’li buyumlar-bolalar uchun o’yin emas” mavzusi “Turli chokidan so’kilgan buyumlarni ta’mir-lash” mavzusi tarkibiga, “Metallarga ishlov berishda xavfsizlik” hamda “Yog’och o’ymakorligida xavfsizlik” mavzulari esa “Metallarga ishlov berish jarayonlari bilan uyg’unlashtirilgan xalq hunarmandchiligi texnologiyasi” mavzusi tarkibiga, “Texnika xavfsizligi” mavzusi “Traktor va mashina bilan ishlashdagi xavfsizlik” mavzusi tarkibiga, “Kesadigan buyumlar bilan ishlash xavfsizligi” mavzusi “Elektr montaj ishlarida ish o’rnini tashkil qilish” mavzusi tarkibiga, “Elektr asbob-moslamalari-dan foydalanishda xavfsizlik” mavzusi “Elektro’tkazish simlarining turi” mavzusi tarkibiga singidirildi;

6-sinf “Sovutgich va muz-latgich, termos, mikroto’lqinli elektr pechlarning tuzilishi va ahamiyati, foydalanish texno-logiyasi” mavzusi tarkibiga “Elektr asboblari-favqulod-da vaziyat manbai” mavzusi, “Elektr go’sht maydala-gichning tuzilishi, vazifasi, ishlash prinsiplari. Xavfsizlik texnik talablari” mavzusi tarkibiga “Elektr go’sht may-dalagichdan foydalanishda xavfsizlik” mavzusi;

7-sinf “Elektr go’sht mayda-lagichning tuzilishi, vazifasi, ishlash prinsiplari. Xavfsizlik texnik talablari” mavzusi tarkibiga “Elektr go’sht maydalagichdan foydalanishda xavfsizlik” mav-zusi;

“Sog’lom avlod asoslari” o’quv kursi 5-sinf mavzularidan “Ovqat-lanishga qo’yiladigan gigiyena talablari” mavzusi “O’zbek milliy oshxonasi. Sabzavotlardan salat tayyor-lash” mavzusi tarkibiga, “Zaharli moddalar va toksikomaniya haqida tushuncha” mavzusi “Yelimlarni ishga tayyorlash” mavzusi tarkibiga, “Sanitariya va gigiyena haqida tushuncha” mavzusi “Pazan-dachilik o’quv xonasi haqida ma’lumot. Sanitariya va gigiyena haqida tushuncha” mavzusi tarkibiga;

6-sinf “Beldan kiyiladigan kiyim turlari. Yubka haqida ma’lumot” mavzusi tarkibiga “O’zingni angla!” mavzusi, “O’zbek milliy taomlaridan suyuq ovqatlar tayyorlash texnologiyasi” mav-zusi tarkibiga “Oila gigiyenasi-oila madaniyati” mavzusi;

7-sinf “Kiyim haqida umumiy ma’lumot” mavzusi tarkibiga “O’smirlik davrida fiziologik o’zgarishlarning namoyon bo’lishi” mavzusi, “Go’sht va go’sht mahsulotlari”. “Baliq va baliq mahsulotlari” mavzusi tarkibiga “Ekstrogenital kasalliklar haqida tushuncha”, “Sabzavot va mevalarni kon-servalash” mavzusi tarkibiga “Vitaminlar va mikroelementlar” mavzusi;

9-sinf “Kasb tanlashda shaxs, kasbiy qiziqish, moyillik va qobiliyatlarni e’tiborga olish” mavzusi tarkibiga “O’smir va muomala psixologiyasi” mavzusi, “Kasb



tanlashdagi onglilik va mustaqillik” mavzusi tarkibiga “Yaxshi ko’rish va sevgi tushunchalari” mavzusi, “Kasblarning murakkablik omillarini tahlil qilish” mavzusi tarkibiga “O’smir va oilaviy hayot haqidagi tasavvurlar” mavzusi, “Kasbga yaroqlilikni belgilash va kasbga moyillikni tarbiyalash usullari” mavzusi tarkibiga “Ziddiyatlar va ularni hal yetish yo’llari” mavzusi, “Kasb tanlashga doir reja tuzish” mavzusi tarkibiga “Maktab o’quvchilarining salomatligi va kasb tanlashda qo’yiladigan talablar” kabi mavzular uyg’un-lashtirilgan holda singdirildi Texnologiya ta’limi fani o’quv dasturlari tarkibiga “Din tarixi”, “Iqtisod va soliq alifbosi”, “Iqtisod va soliq saboqlari”, “Sog’lom avlod asoslari” hamda “Hayot xavfsizligi” kurslaridan kiritildi.

ADABIYOT:

1. Abdullayeva Q.M. Maxsus fanlarni o’qitishda bo’lajak o’qituvchilarning kasbiy bilim va ko’nikmalarini shakllantirishning metodik asoslari: Dis. ... ped. fan. nom. – T.: 2006 y
2. Begimqulov U.SH. Pedagogik ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. MonografiY. – Toshkent: Fan, 2007y
3. Doniev B. Texnologiya ta’limi o’qituvchisi pedagogik faoliyatini nazorat qilishning uslubiy asoslari: Dis. ... ped. fan. nom. – T.: TDPU, 2008 y
4. Muslimov N.A. Bo’lajak texnologiya ta’limi o’qituvchisini kasbiy shakllantirish. – T.: Fan, 2004 y.
5. Muslimov N.A., Quliyeva Sh.H. Kasb ta’limi o’qituvchilarini tayyorlash jarayoniga tizimli yondashuvni amalga oshirishga muammoli vaziyatlar. – T.: Fan va texnologiyalar, 2007 y
6. To’rabekov F.S., Tulyakov A., Hamidov O. Texnologiya ta’limi o’qituvchilarini kasbiy kompetentligini shakllantirishda texnik vositalardan foydalanish // Texnologiya va kasb ta’limi o’qituvchilarini kasbiy kompetentligini ta’minlashning integrativ texnologiyalari: Respublika ilmiy – amaliy anjuman materiallari.– Toshkent: TDPU, 2010 y,
7. Safarova R.G’,Yusupova F.I. Umumiy o’rta ta’lim maktablarida modulli o’qitish jarayonida pedagogic texnologiyalar bankidan foydalanish mexanizmlari. “Tafakkur qanoti” 2017 y,
8. Hamidov A. Oliy texnika o’quv yurtlarida muammoli o’qitishning yangi pedagogik texnologiyalari. – Toshkent: TDTU, 2003 y
9. Haydarov B., Nuridinov B. va b. Ta’lim samaradorligini oshirish yo’llari. – T.: TESIS, 2002 y
10. Hamidov J.A. Kasb ta’limi o’qituvchilarini tayyorlash jarayoniga axborot texnologiyalarini qo’llashning ilmiy-uslubiy asoslari. (umumkasbiy fanlarni o’qitish misolida): Dis. ... ped. fan. nom. – Jizzax, 2005 y





11. Sharipov Sh.S. Texnologiya ta'limi metodikasi, kasb tanlashga yo'llash T.2009 y
12. O'.Toirov Texnologiya ta'limi fanidan dars ishlanmalar to'plami. Toshkent.2011 y
13. Проворова О.Г.Принсипы модульного обучения. Красноярск.-2006-32 с
14. <http://www.bilimdon.uz>
15. <http://www.edunet.uz>
16. www.ziyonet.uz.
17. <https://darakchi.uz/oz/68103>

